



STEAM YONDASHUVI ASOSIDA IJODKORLIK VA MUAMMOLI FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Nargiza G‘ayratova Bahodir qizi

Toshkent shahridagi Webster universiteti bitiruvchisi

Email: gayratovanargiza6@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tezisda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi asosida o‘quvchilarda ijodkorlik va muammoli fikrlashni rivojlantirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi. Model o‘quv jarayonida integrativ, amaliy va innovatsion metodlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, STEAM asosidagi o‘qitish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashni, tahliliy yondashuv va kreativ yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar:

STEAM ta’limi, ijodkorlik, muammoli fikrlash, integratsiya, innovatsion yondashuv, pedagogik model.

Asosiy qism

XXI asr ta’lim tizimi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi. STEAM-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini o‘zaro bog‘lab, o‘quvchilarda integratsion tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuvda o‘qituvchi yo‘l ko‘rsatuvchi, o‘quvchi esa faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijodkorlik va muammoli fikrlash – bu yangi g‘oyalar yaratish, ularni amalda qo‘llash va muammolarga noan’anaviy yechim topish qobiliyatidir. STEAM modeli loyihaviy, muammoli va tajriba asosidagi topshiriqlar bilan o‘quvchilarni ijodiy izlanishga undaydi. Masalan, boshlang‘ich sinfdagi suv aylanishi mavzusida o‘quvchilar suv tozalash moslamasi yoki kichik ekosistema loyihasini yaratish orqali bilimni amaliyot bilan bog‘laydi.



Model quyidagi bosqichlardan iborat: 1) Tahlil – o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash; 2) Loyihalash – fanlararo dars ssenariylarini tuzish; 3) Amalga oshirish – ijodiy topshiriqlarni bajarish; 4) Baholash – natijalarni tahlil qilish va takomillashtirish. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, STEAM modeli asosida o‘qitilgan o‘quvchilar ijodkorlik va hamkorlik bo‘yicha sezilarli o‘sishga erishgan.

Xulosa

STEAM yondashuvi o‘quvchilarda ijodkorlik, muammoli fikrlash va fanlararo integratsiyani rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning yangilik yaratish, amaliy tafakkur va jamoada ishlash ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Bu modelni O‘zbekiston ta’lim tizimida keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yakman, G. (2008). STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. Pupils Attitude towards Technology Conference.
2. Bybee, R. W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. NSTA Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.